



## TABU VA TILSIMLI ASHYOLAR BADIYATI

**Zebiniso  
 Rasulova**

*O'zR FA, O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti,  
 Folklor bo'limi katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi.*

**Abstract**

abular o'ziga xos ijtimoiy-axloqiy mohiyatga ega. Chunki ular hayot tajribalari asosida kelib chiqqanligi, kishilarning turmush tajribasi orqali sinovdan o'tganligi bilan e'tiborni tortadi. Ular kishilar tomonidan o'z-o'zini tashqi yomon ta'sirlardan himoyalash, ehtiyyot qilish uchun bajariladi. Belgilangan taqiqqlarni bajarishda maxsus ramziy xatti-harakatlarga amal qilinadi yoki magik sanaluvchi narsalardan foydalilaniladi. Maqolada o'zbek folkloridagi tabu va tilsimli ashylar haqida so'z yuritiladi.

**Keywords :** O'zbek xalq og'zaki ijodi, magiya, marosimlar, tabu, tilsimli ashylar.

Tabu hodisasi jahon halqlarining barchasiga xos bo'lib, "man qilingan, taqiqlangan" degan ma'nolarni anglatadi. [1; 9; 10] Sehrli ertaklarga xos syujetlar tizimida tabu (taqiq)lar bilan bog'liq tushunchalar asosida yaratilgan uydirmalar alohida o'rinn tutadi. Tabular ibridoiy insonning sirli olam haqidagi mifologik tasavvur-tushunchalari, animistik qarashlari, sehr-jodu (magiya)ga ishonchi natijasida kelib chiqqan. Tabularda ajdodlar (bobo-momolar, ota-onalar, aka-opalar) tomonidan turmushda sinab aytilgan, aniq belgilangan taqiqlar ilgari suriladi. Tabu o'ziga xos sirli shart bo'lib, uni unutish yoki unga amal qilmaslik, bu shartni nazar-pisand etmaslik, sabrsizlik qilib buzish oqibatida kishi falokatga uchrashi, sehr-joduga yo'liqishi mumkin, deb tasavvur qilinadi.

Qadimgi odamlar juda ko'p sohalarda ehtiyyotkor bo'lishga harakat qilishgan. Tabularga nisbatan ibridoiy insonlar orasida shakllangan ishonch hozirgacha saqlanib kelayotir. Tabu yovuz ruhlarni yo'qotuvchi vosita vazifasini o'tagan.

Tabular butun bir silsilaviy tizimni tashkil etadi. Ular mavzu mundarijasiga ko'ra quyidagi turlarga bo'lib o'rganiladi:

- a) to'y marosimiga oid taqiqlar;
  - b) onalar va bolalar o'rtasida munosabat hamda ularga atab o'tkaziladigan marosimlarga oid taqiqlar;
  - v) kunlar va vaqtga doir tabular;
  - g) ro'zg'or ashylari va turli xil buyumlarga oid taqiqlar;
  - d) kishilar turmush faoliyatining turli sohalariga oid taqiqlar va hokazo kabi.
- J.Frezer[2], D.K.Zelenin[3] va Z.Freyd [4] kabi olimlarning fikricha, tabularning shakllanish jarayoni ma'lum bir davr bilan belgilanmaydi, binobarin,

ularning yashash tarzi ham chegaralanmagan. Tabular insoniyatning qadim ajdodlar-ibridoq odamlar yashagan davrlardayoq ularning tabiat stixiyasi tufayli paydo bo‘lgan turli-tuman e’tiqodlari ta’sirida vujudga kelgan.

Ibtidoiy ajdodlarimiz tabuni qandaydir harakat, narsa va so‘zga iisbatan qo‘yilgan e’tiqodiy taqiq tarzida anglaganlar va uni buzgan kishi og‘ir jazoga yo‘liqishiga ishonganlar.

Ingliz elshunosi J.Frezerning “Oltin butoq” asarida “Taqiqlangan harakatlar” nomli alohida bob bor [2]. Unda odamlar va ularning tana a’zolari, ayrim narsalarga nisbatan qo‘llanadigan taqiqlarning mohiyati, kelib chiqish tarixi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, olim taqiq so‘zlar to‘g‘risida ham alohida to‘xtalib o‘tgan. Ushbu asarda ibridoiy jamiyatda amal qilingan tabularning to‘rt tipi ko‘rsatib o‘tilgan.

1. Ibtidoiy jamiyat a’zosining harakatini boshqarib turgan taqiqlar. Bunga ko‘ra, qadimgi insonlar o‘zga qabila vakillari bilan munosabatda, aloqada bo‘lishda, oziq-ovqat va ichimlik turlarini iste’mol qilishda, yashab turgan manzilidan uzoqlashishda, yurish-turishda ma’lum tabularga rioya qilganlar.

E’tiborli tomoni shundaki, bunday tabular mazmunini o‘zida ifoda etuvchi badiiy motivlar sehrli-fantastik tipda yaratilgan ertaklarning syujetida saqlanib kelmoqda. Ba’zi ertaklarda qahramon kirishi taqiqlangan qirq birinchi xonaga kirgani uchun boshiga turli musibatlar, og‘ir kunlar tushadi. Shu lahzadan e’tiboran qahramon sehr-joduga yo‘liqib, hayotida turli o‘zgarishlar yuz beradi. Demak, ertaklarda belgilangan tabuga amal qilmaslik, uni buzish motivi qahramonning sehr-joduga yo‘liqishi motivi talqini uchun keng yo‘l ochadi. Natijada motivlar sintezlashuvi yuzaga kelib, ertak syujetida murakkab ko‘pqatlamlilik hosil bo‘ladi.

2. Bevosita odamlarga daxldor bo‘lgan tabular. Unga ko‘ra, qabila boshlig‘i va hukmdor, yaqinidan judo bo‘lgan azador kishi, homilador ayol, jangchilar, qotillar, ovchilar, baliqchilar bilan muomala-munosabatda bo‘lishda ma’lum tabularga amal qilingan.

3. Buyumlarga aloqador tabular. Ular, asosan, temirdan yasalgan o‘tkir tig‘li jang quollariga, uzukka, oynaga nisbatan qo‘llangan. Buyumlarga nisbatan paydo bo‘lgan tabular orasida tig‘li buyumlarga nisbatan kelib chiqqan tabular alohida o‘rin tutadi. Temirga tabu hali temirdan yasalgan buyumlarni keng qo‘llash u qadar urf bo‘lmagan davrlarda, odamlar unga shubha va ishonchszilik bilan qaragan vaqtarda paydo bo‘lgan. Asosan, yog‘och buyumlar ishlatilib, temir buyumlar deyarli ishlatilmagan. Odamlar ularni ishlatishdan cho‘chishgan.

4. So‘zga aloqador tabular. Unga ko‘ra, insonning ismini, ota-onalarning, marhumlarning, hukmdorlarning nomini aytish taqiqlangan.

Sochga aloqador tabu mavjudligi tufayli kishilar o‘rtasida soch olish ritual tadbiri (soch olish marosimi) shakllangan. Bu marosim hozir ham yosh bolaning sochini ilk marta olish munosabati bilan o‘tkaziladi. Chaqaloqning sochiga keksa ayol yoki cholga qaychi urdirib olinadi.

Qizaloqlarning sochini ilk bor yuvib-taraganda momolarimiz quyidagi kabi maxsus olqish-aytimlarni kuylaydilar:

Oyda – quloch,

Kunda – tutam.

Senga – kuyov,

Menga – palov. [6]

Qadimda Fidji orolida shohning sochini olishdan oldin maxsus odamxo‘rlik marosimi o‘tkazilgan. Shohga odam go‘shti yedirilib, keyin uning sochi olingan .

Soch olishga aloqador tabu hozirgi paytda sartaroshlar bilan bog‘liq e’tiqodiy munosabatlarning shakllanishiga asos bo‘lgan. Sartaroshlar ma’lum bir himoyachi pirga suyanib ish yuritadilar. Sartaroshlarning o‘z piri bor.

Xalqimizda soch olish bilan aloqador bir talay tabularga amal qilingan. Jumladan, taniqli etnograf olim G.P.Snesarevning qayd qilishicha, “Xorazmda ham soch va tirnoq bilan aloqador anchagina irim-sirimlar mavjud bo‘lgan. [7] Masalan, soch va tirnoqni o‘tda kuydirish mumkin bo‘lmagan, chunki uning egasi biror falokatga yo‘liqadi yoki bosh og‘rig‘i kasaliga duchor bo‘ladi deb qo‘rqanlar. Sartaroshlar olingan sochlarni duch kelgan joyga emas, balki ko‘pincha biror mozorga olib borib ko‘mib kelishgan. Soch bilan bog‘liq bunday tabularning qadimiy ildizlari “Avesto”ga borib taqaladi” .

Xullas, xalq tabu-taqiqlari muayyan tizimni hosil qiladi. Bundan ko‘rinadiki, tabular o‘tmishda ijtimoiy hayot qonuni sifatida keng amal qilgan. Kattayu kichik unga bo‘ysunib, rioya qilgan. Shu holat, tabiiyki, juda qadimda yaratilgan xalq og‘zaki ijodi asarlarida o‘z aksini topgan. Shuning uchun ertaklarda tabularga amal qilmaslik yomon, salbiy oqibatlarga olib kelishi, falokat va fofia yuz berishi alohida badiiy talqin etiladi.

Ibtidoiy odamlar tabularga amal qilmaslik natijasida kishi o‘ziga zarar keltiruvchi sehrga yo‘liishi mumkin, lekin zararli sehr ta’siridan kishini xalos etuvchi, asrovchi, himoya qiluvchi, qo‘llab-quvvatlovchi va unga qarshi tura oladigan magik vositalar ham bor, deb tushunganlar.

Shu tasavvur-tushunchalarning izlari sehrli ertaklarda qahramonning yovuz niyatli mifologik obrazlarga qarshi turli himoyalovchi magik buyumlar vositasida kurashishi misolida badiiy talqin qilinadi. Aytaylik, ertak qahramonlari, odatda, o‘z orqasidan ta’qib qilib, quvib kelayotgan yovuz kuchlarni (yalmog‘iz kampirni yoki devni) ortda qoldirish uchun yoki uning yo‘lini to‘sib, imkoniyatlarini chegaralash maqsadida sehrli taroq, sehrli oyna kabilardan foydalanadi.

Sehrli ertaklarda har bir sirli (g‘aroyib) buyumning o‘z poetik o‘rni va vazifasi bor. Ular orasida marosimlarda ishlatiladigan va ishlatilmaydiganlari uchraydi. Har qanday holda ham ular sirli ertaklarda g‘aroyib (sehr-jodugaga ega) buyum sifatida talqin qilinishi kuzatiladi.

O‘zbek xalq sehrli ertaklari tarkibiga tilsim bilan bog‘liq “g‘aroyib narsa”lar tasodifan kirib qolmagan. Ulardan aksariyatining asosida tabu yotadi. Jumladan, qadimda sochga nisbatan qo‘llanilgan tabu taroqqa magik vosita sifatida qarashni keltirib chiqargan bo‘lsa, yuzni yashirib yurish, har kimga ko‘rsatmaslik taqiqi sehrli oyna timsolinig yaratilishiga asos bo‘lgan. Shuningdek, inson va hukmdorlar nomini sir saqlash, ochiq-oshkora aytmaslik taqiqi ertaklarda personajlarni o‘z nomi bilan atamaslik, ularni ko‘pincha umumiyl nom bilan podsho, shahzoda, qahramon, botir, cho‘pon, dehqon, savdogar yoki biror-bir belgi, yo laqab bilan (mas.: kal, ko‘sa) atashga olib kelgan.

Xullas, ibtidoiy insonlarning yovuz va ezgu ruhlar mavjudligiga ishonchi tabularni keltirib chiqargan. Qadim kishisi yovuz ruhlarga qarshi ezgu ruhlar

ko‘magida kurashib, ularni mag‘lub etish mumkin deb hisoblagan. Shunga ko‘ra, sehrli ertaklarda ikki xil sehr-jodu talqin etiladi. Bular zarar yetkazuvchi va himoya qiluvchi sehr-jodudir. Zarar yetkazuvchi sehr-joduga sehrli ertaklardagi sehrlangan ko‘l, o‘lik suv, o‘lim olmasi kabilar misol bo‘lsa, sehrli taroq, oyna, uzuk, tiriklik suvi, ur to‘qmoq, ochil dasturxon, qaynar xumcha, uchar gilam va hokazolar insonni har tomonlama qo‘llab-quvvatlovchi, himoya qiluvchi magik vositalar qatoriga kiradi.

Himoya qiluvchi “g‘aroyib narsa”lardan ochil dasturxon, qaynar xumcha timsoli badiiy tafakkur taraqqiyotining keyingi bosqichlarida xalqning to‘kin turmush haqidagi orzu-istiklariga bog‘liq tarzda paydo bo‘lgan.

O‘zbek xalq ertaklaridagi “g‘aroyib narsa”lar bilan bog‘liq epik motivlarning tarixiy asoslari, asosiy tiplari va badiiy vazifalari maxsus tadqiq etilishi kerak, deb o‘ylaymiz.

Sehrli ertaklar ham o‘tmishda ijtimoiy vazifa bajarib, kishilarga belgilangan maishiy taqiqlarga rioya qilish shartligini uqtirish, agar unga rioya qilinmasa, inson turli falokatlarga, sehr-joduga yo‘liqishi mumkinligini ta’kidlash vazifasini bajargan. Hatto aksariyat sehrli ertaklar bevosita ma’lum bir tabuni asoslash, uni badiiy talqin qilish uchun yaratilganligi seziladi.

Kattalar tomonidan aytilgan, belgilangan taqiqni unutish, buzish, unga rioya qilmaslik asosida epik qahramonning falokatga uchrashi, aniqrog‘i, biror-bir sehr-joduga yo‘liqishi motivi sehrli ertaklarning yetakchi motivlaridan biridir. Masalan, “Oltin beshik” [8] ertagida singilning o‘z opasi so‘ziga amal qilmay, taqiqlangan ko‘lmakdan suv ichib, kiyikka aylanishi voqeasi shunday hikoya qilinadi: “Qizcha yugurib borib suv ichaman deganda, – Ichma, kiyik bo‘lib qolasan! – deb qichqiribdi. Keyin ular yana yo‘lga tushibdilar. Singlisi: – Haligi joyda bir poy kovushim qolibdi, - debdi. Opasi: – Bor, darrov olib kel, lekin haligi suvdan ichibdi-da, kiyik bo‘lib qolibdi” . Singlisi opasining gapiga kirmay, hovuzdagi suvdan ichibdi-da, kiyik bo‘lib qolibdi” . Singlisi opasi (katta avlod vakili)ning so‘ziga kirmay shu suvdan ichgan ekan, kiyik suratiga kirib qolibdi. Chunki qadimgi odam tasavvurida suv sehrli kuchga ega deb qaralgan va shu bois har qanday suvni ichish taqiqlangan. Ajdodlarimiz agar odam u yoki bu jonivor ichgan suvdan ichsa, unga o‘sha suv orqali jonivorning xususiyatlari ham o‘tadi, deb o‘ylagan. Ana shu kabi qadimiylashtirish tasavvur-tushunchalar mazkur ertakda tabu orqali ifoda etilgan.

“Qilich botir” ertagida esa qahramonning sevgilisi maston kampirning avrashiga berilib, Qilich botirning joni qilichda saqlanishi haqidagi sirni aytib qo‘yishi va bu sirni ochmaslik shartining buzilishi natijasida qahramon boshiga og‘ir ko‘rgiliklar tushadi.

“Zumrad va Qimmat” ertagida Qimmatning sehrgar kampir tomonidan qo‘yilgan shartni buzishi, ya’ni sandiqni uyga yetib borganida emas, yo‘ldayoq ochishi natijasida onasi bilan sehr-joduga yo‘liqib, itga aylanib qolishi hikoya qilinadi.

Ayrim ertak va dostonlarda qahramonlarning taqiqlangan boqqa kirib borishi, taqiqlangan yo‘ldan yurishi, taqiqlangan xonaga kirishi va hokazolar natijasida yomon ko‘rgiliklarga duch kelishi tasviri ham uchraydi.

Xullas, tabu (taqiq)larga rioya qilinmasa, ular buzilsa, ma’lum salbiy oqibatlar kelib chiqishi haqidagi qadimgi tasavvurlar sehrli ertaklarda o‘ziga xos epik motivlarning shakllanishiga asos bo‘lgan. Bu bilan sehrli ertaklarda insonga toqatli,

bardoshli, chidamli, matonatli bo‘lish, duch kelgan qiyinchiliklarni sabr bilan yengib o‘tishga o‘zida kuch topa bilishi g‘oyasi uqtiriladi.

Og‘zaki epik janrlarda tabularga aloqador motivlar juda ko‘p uchraydi. Xususan, sehrli ertaklarga xos syujetlar tizimida tabu (taqiq)lar bilan bog‘liq tushunchalar asosida yaratilgan uydirmalar yetakchi o‘rin tutadi.

Ba’zan ertaklarda pichoq bilan bog‘liq tabu ifodasini kuzatish mumkin. Bunda tilsim pichoqning sirini har qanday holatda hech kimga aytmaslik shart qilib qo‘yiladi. Biroq ertak qahramoni bu shartni unutib, tabuni buzishi oqibatida boshiga juda ko‘p tashvish keltiradi. So‘ngra u ming mashaqqatlar bilan yana o‘z pichog‘ini qo‘lga kiritib, qaytadan xotirjamlikka va baxtga erishadi. Bunday motiv “Ernazar va Kimonazar” ertagi syujetida uchraydi.

Tabiiyki, bunda pichoqqa nisbatan amal qilinadigan tabuning buzilishi natijasida kelib chiqadigan ko‘ngilsizlik va baxtsizliklar ertakda badiiy ko‘rinishda ifoda etiladi.

Bunday ertaklarda, avvalo, pichoqning meros qoldirilishi va unga sehrli so‘z aytish detali alohida e’tiborni tortadi. Darhaqiqat, hayotda qassoblik yoki kinnachilik kasbi bilan shug‘ullanadigan kishilar o‘z farzandlaridan biriga (odatda, yo kattasiga, yo kichigiga) kasb pichog‘ini meros sifatida qoldirib ketish udumi bor. Bunda farzand ota kasbini qilib, pichoqdan foydalananar ekan, albatta, otasi ruhiga, qassoblar piriga yoki kinnachilar piriga olqish aytadi. Shunday qilinsa, aziz ruhlar ishimga rivoj bag‘ishlaydi, deb ishonadi.

“Ikki yarim Gulpari” ertagida bola devlarning podshosi Battol devdan yog‘och otini so‘rab oladi. Uning o‘ng qulog‘ini buraganda “alhamdi”, chap qulog‘ini buraganda “valazzolin” deb aytishi, manzilga yetib borgandan so‘ng uni buzib, cho‘ntagiga solib qo‘yishi kerak bo‘ladi. Shunday qilmasa, otni olib ketib qoladilar. Bola ana shu o‘gitni unutib qo‘yib, tilsim otdan ajrab qoladi.

“Dev po‘stin” ertagida shunday tabuga aloqador motiv keltirilgan: “Devning bir po‘stini bo‘lar ekan. Ertalab kiyib dev bo‘lib ketar ekan va kechasi po‘stini yechsa yana odam bo‘lib o‘tiraverar ekan. Uni qiz bilib olibdi. Uyiga kelib bu sirni kelinoyilariga aytibdi. Ular “kuydirib tashlagin”, deyishibdi. Qiz po‘stinni yoqib tashlabdi. Eri ertalab turib po‘stini qidiribdi va xotinidan so‘rabdi. Xotini uni kuydirib tashlaganini aytibdi. Eri buni eshitib, xotiniga “xayr” deb bir duo o‘qib kaptarga aylanib uchib ketibdi. Shundan so‘ng qiz otasiga telpak, etik, hassa qildirib, erini izlab yo‘lga chiqibdi”.

Ko‘rinib turibdiki, bu ertakdagisi voqealar talqinida ham bevosita epik shart – tabuning buzilishi dramatizmning kuchayishiga sabab bo‘lgan.

Xullas, ertaklar orasida ma’lum bir tabuni asoslash, uni badiiy talqin qilish uchun yaratilgan sehrli ertaklar o‘ziga xos qiziqarli syujeti bilan alohida e’tiborni tortadi. .

## АДАБИЁТЛАР

1. Omonturdiyev A. Professional nutq evfemikasi (chorvador nutqi misolida): Filol. fanlari doktori diss. avtoref. – Toshkent, 2009. – B.9.
2. Frezer Dj.Dj. Zolotaya vetv. 2-ye izd-ye. – M.: Politizdat, 1983. – S.188-195.
3. Zelenin D.K. Tabu slov u narodov Vostochnoy Yevropy i Severnoy Azii. Chast 2. – M., 1930.

4. Freyd Z. Totem i tabu: psixologiya pervobыitnoy kultury i religii / Freyd Z. "Ya" i "Ono". Trudy raznykh let. Kn.1. – Tbilisi: Merani, 1991. – S.38-39.
5. Frezer Dj.Dj. Zolotaya vety. 2-ye izd-ye. – M.: Politizdat, 1983. – S.188-195.
6. Boychechak. O'XI. Ko'p tomlik. Bolalar folklori. Mehnat qo'shiqlari. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchilar: O.Safarov, K.Ochilov. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1984. – B.57.
7. Snesarev G.P. Relektы domusulmanskix verovaniy i obryadov u uzbekov Xorezma. – M.: Nauka, 1969. – S.169.
8. Oltin beshik. O'zbek xalq ertaklari. – Toshkent, 2011. – B.128-129.
9. Yuldashev M. Synonymic Words in Abdulhamid Sulaymon Cho'lpon's Works. The International journal of analytical and experimental modal analysis. ISSN No:0886-9367. Volume XII, Issue VI, June/2020. Page No: 1732-1739.
10. Marufjon Yuldashev. Fundamentals of literary text and its lingvopoetic analysis. -Tashkent: fan. 2007.